

DIDAKTIK O'YINLAR VA DRAMATIZATSIYA MASHG'ULOTLARINING NUTQIY RIVOJLANISHDAGI ROLI

Ro'ziyeva Nozimaxon

Andijon davlat pedagogika institute 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada didaktik o'yinlar va dramatizatsiya mashg'ulotlarining bolalar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Didaktik o'yinlar orqali bolalarning lug'at boyligini oshirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik jihatdan to'g'ri nutq tuzish hamda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, dramatizatsiya mashg'ulotlarining bog'lanishli nutqni rivojlantirish, emotsional ifodalilikni kuchaytirish, ijodiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, drammatizatsiya metodlari, rolli o'yinlar, kognitiv rivojlanish, ijtimoiyashuv.

Kirish. Nutqiy rivojlanish - bu bolaning til vositasida fikr yuritish, o'z fikrini izchil va mantiqiy bayon qilish, emotsional holatini ifoda etish, shuningdek, atrof-muhit bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish jarayonidir. Ilmiy adabiyotlarda nutqiy rivojlanish inson tafakkurining shakllanishi, muloqot madaniyatining yuzaga kelishi va ijtimoiy faol shaxs sifatida kamol topishining asosiy determinanti sifatida qaraladi. Ayni jarayon bola tug'ilgandan so'ng ilk bosqichlardan shakllanib boradi va bu holat biologik, psixologik, pedagogik hamda sotsiokulturniy omillarning o'zaro ta'siri orqali amalga oshadi. Bundan tashqari nutqiy rivojlanishning bir meyorda kechishi, bola hayoti davomida sodir bo'luvchi didaktik o'yinlar va dramatizatsiya mashg'ulotlarining qo'llanilishiga ham bog'liqdir.

Hamamizga ma'lum endi rivojlanib kelayotgan bolaning hayotida asosiy yetakchi faoliyat bu o'yin faoliyatidir. Bu faoliyatni samarali tashkil etish ayniqsa muhimdir. Chunki bu jarayonda bolaning kognitiv xususiyatlari endigina rivojlanayotgan bo'ladi. Ayni bu jarayonni qanday kechishini kuzatish, uni normadan chetga chiqishini oldini olish uchun bir necha samarali mashg'ulotlarni qo'llay olish, bolaning har tomonlama sog'lom rivojlanishining kafolati hisoblanadi.

L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, nutq tafakkurning tashqi shakli bo'lib, bola dastlab atrof-muhitni anglashda til vositasidan emas, balki bevosita harakat va obrazli tasavvur orqali foydalanadi. Ammo sotsial muhitda tarbiyalangan sari, bola til vositasida fikrlay boshlaydi, bu esa uni to'laqonli ijtimoiy mavjudot sifatida shakllantiradi.

Asosiy qism. Bugungi kun ta'limida nutqiy rivojlanishni ta'minlovchi metodik mashg'ulotlar turli yondashuvlar orqali tizimlashtirilmoqda. Xususan, dialogik va

monologik mashgʻulotlar, rolli oʻyinlar, dramatizatsiyalar, hikoya tuzish, suhbat qurish, fikr bildirish, savol-javoblar, didaktik oʻyinlar, matnga asoslangan mantiqiy tahlillar — bularning barchasi nutqiy rivojlanishning metodik asoslarini tashkil etadi. Har bir mashgʻulot turining oʻziga xos didaktik maqsadi, shakli, vositasi va kutilyotgan natijasi mavjud boʻlib, ular tarbiyalanuvchining yosh, psixologik va individual xususiyatlariga mos holda tanlanishi zarur.

Shuningdek, bolalarning nutqiy rivojlanishida pedagogik muhit, oʻqituvchining nutq madaniyati, emotsional taʼsiri, ijtimoiy-psixologik iqlim va oila bilan uzviy hamkorlik ham hal qiluvchi omillar qatorida sanaladi. Bolalar nutqining shakllanishida faqat taʼlim muassasasi emas, balki oila, atrof-muhit, ijtimoiy guruhlar va axborot vositalarining ham oʻrni mavjud. Ayniqsa, ilgʻor xorijiy tajribalarda oilaviy nutq muhitini boyitish, ona tili va madaniy qadriyatlar asosida bolaga lingvistik iqlim yaratish orqali nutqiy rivojlanishni qoʻllab-quvvatlash muhim metodik yoʻnalish sifatida qaralmoqda. Ushbu yoʻnalisharga hamohang tarzda bir necha didaktik oʻyinlarning keng tarqalishi, mashgʻulotlarni samaradorligini oshiruvchi turli dramatizatsiya jarayonlarning tizimli ravishda amalga oshirilishi bolaning ham ijtimoiylashuv saviyasini mustahkamlamoqda, ham psixologik jihatdan sogʻlom rivojlanishi uchun yetakchi omil vazifasini oʻtab kelmoqda.

Didaktik oʻyinlar orqali tashkil etilgan mashgʻulotlar bolalarda nafaqat soʻzlashuv koʻnikmasini, balki ularning ijtimoiy moslashuvini, muloqotda erkinlik va faoliyatga boʻlgan ichki ehtiyojni ham rivojlantiradi[1]. Haqiqatdan ham didaktik oʻyinlar faqat bilim emas, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, tashabbuskorligi, nutqiy muloqotga kirishishga boʻlgan ehtiyojini ham shakllantiradi. Bu metodlar yordamida bola soʻzlashda oʻziga boʻlgan ishonchni his etadi, nutq orqali ijtimoiy muhitga integratsiyalashadi.

Didaktik oʻyinlar va dramatizatsiya mashgʻulotlari bolalar nutqiy rivojlanishining tabiiy va eng samarali vositalaridan biri sifatida pedagogik-nazariy jihatdan chuqur oʻrganilgan boʻlib, ular bolaning nutqiy faoliyatini faollashtirish, soʻz boyligini kengaytirish, fikrni mantiqiy izchillikda ifodalash va ijtimoiy-psixologik moslashuvini taʼminlashda alohida oʻrin tutadi. Ushbu mashgʻulot turlari nafaqat bolani oʻqitishga, balki uni faol muloqotga jalb qilishga, oʻz fikrini erkin bayon etish, tushunish va tushuntirishga oʻrgatadi. Ayniqsa, oʻyin va sahnalashtirish faoliyatida bola oʻz ixtiyori bilan nutqiy vazifalarni bajarishga harakat qiladi, bu esa ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va muloqotga kirishish jarayonini tabiiy holga keltiradi.

Nutqiy faoliyatni rivojlantirishda dramatizatsiya va dialog asosidagi mashgʻulotlar bolaning soʻz boyligini kengaytirish, emotsional ifodasini shakllantirish va mustaqil fikrlashga oʻrgatishda samarali vositadir[2]. Mashgʻulotlar shaklida ijodiy dramatik sahnalashtirishlar va erkin dialogik muloqotlar orqali bolalarda tilning tabiiy ravishda rivojlantiradi. Shuningdek, bu yondashuv oʻqituvchining ichki fikrini erkin

ifoda etishiga va muloqotdagi emotsional ishtirokini kuchaytirishga yordam beradi.

Ilmiy manbalarda, xususan, L.S. Vygotskiy va D.B. Elkonin asarlarida o'yin faoliyatining bolaning psixik rivojlanishidagi roli chuqur asoslab berilgan. Ularning fikricha, o'yin - bu bolaning real hayotdagi rollarni modellashtirgan holda mustaqil fikrlashi, tasavvur qilishi va o'zini ijtimoiy muhitda sinab ko'rishidir[3]. Bu jarayonda nutq markaziy vosita sifatida shakllanadi va bola o'yin orqali og'zaki muloqotga kirishadi, boshqa rollarni tushunadi, ularning o'rniga o'zini qo'yadi, ijtimoiy vazifalarni so'z bilan ifodalashga harakat qiladi. Masalan, "do'konchi-va-mijoz", "shifokor-va-bemor", "oila a'zolari" kabi rolli o'yinlarda ishtirok etish bola uchun yangi so'z birikmalari, kontekstual iboralar va grammatik shakllarni faol o'zlashtirish imkonini beradi. Bunday o'yinlar bolaning lisoniy qobiliyatlari bilan bir qatorda, ijtimoiy rol va munosabatlarni ham shakllantiradi.

Didaktik o'yinlar o'quv maqsadlariga yo'naltirilgan bo'lib, ular orqali bolalar nafaqat so'zlarni yodlaydi, balki ularni muayyan kontekstda to'g'ri qo'llash, fikr almashish, savolga mos javob berish, gap tuzish va u orqali o'z fikrini aniq bayon etishga o'rganadi. Didaktik o'yinlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolaning nutqiy faolligi sezilarli darajada ortadi, shuningdek, bu metod bolaning e'tiborini saqlab turish, o'yin orqali o'qitish, emotsional qiziqishni qo'zg'atish, interaktiv muloqot muhitini yaratish imkonini beradi. Psixologik jihatdan esa bu mashg'ulotlar bolada ishonch hissini kuchaytiradi, chunki bola o'yin davomida xatolardan cho'chimaydi, erkin fikr bildiradi va ijtimoiy baholovchi bosimni his qilmaydi.

Dramatizatsiya esa bolalarning nutqiy rivojlanishida badiiy-estetik didni shakllantirish, emotsional so'zlashuvni o'rgatish, obrazli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi keng qamrovli metodik vositadir. Sahnalashtirish orqali bola tasviriy nutqdan muloqot nutqiga, og'zaki bayon qilishdan ifodali dramatik monolog va dialoglarga o'tadi. U o'z rolini so'zlar, mimika, ohang, tana harakati orqali ifoda etishga harakat qiladi. Natijada, bolaning so'z tanlovi, gap qurilishi, emotsional ifoda vositalaridan foydalanish darajasi oshadi. Bunday mashg'ulotlar orqali bolada nafaqat og'zaki nutq, balki psixologik muvozanat, sahna madaniyati, aktyorlik malakalari va eng muhimi, o'z fikrini omma oldida ayta olish qobiliyati shakllanadi.

Dramatizatsiya mashg'ulotlarida ishlatiladigan metodlar:

- ertakni rollarga ajratish
- matn asosida sahna ko'rinishlar yaratish
- obrazga kirish
- improvizatsion ifoda
- dramatik epizodlarni ovozli ifoda qilish

bularning barchasi bolaning tilga bo'lgan sezgirlikni, tafakkurining obrazlilikini va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiradi[4]. Ayrim bolalarda tabiiy nutqiy to'siqlar yoki

uyatchanlik bo'lgan taqdirda ham, obraz ortidan o'zini erkin tutishga, nutqiy ifoda orqali o'zini namoyon etishga imkon tug'iladi.

Xulosa. Metodik nuqtai nazardan qaraganda, didaktik o'yinlar va dramatizatsiya mashg'ulotlari dars jarayonining asosiy yoki mustahkamlovchi bosqichlarida, mustaqil mashg'ulotlarda, darsdan keyingi faoliyat shaklida, ijodiy kechalar va tadbirlarda muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Ular har bir bola uchun qiziqarli, hissiy jihatdan boy va erkin ifodaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mashg'ulot maydonini yaratadi. Ushbu yondashuvlar orqali bola faqat grammatika va lug'at o'rganmaydi, balki real hayotda nutqiy muloqotga kirishish, fikrini boshqalarga yetkazish, situatsion muammolarni nutq vositasida hal qilishga o'rganadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, didaktik o'yinlar va dramatizatsiya mashg'ulotlari bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlovchi eng samarali metodik vositalardan hisoblanadi. Ular bolaning tilni o'zlashtirishga bo'lgan tabiiy ehtiyojini uyg'otadi, nutqiy faoliyatni faollashtiradi, emotsional qamrovni kengaytiradi va eng muhimi, bolada muloqot madaniyatini shakllantiradi. Shuning uchun pedagoglar ushbu vositalardan foydalanishda ularni bolalarning yosh xususiyatlari, nutqiy tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlariga moslab, ilmiy-metodik asosda puxta rejalashtirilgan tarzda qo'llashlari zarurdir. Ana shunda bu mashg'ulotlar faqatgina til o'rgatuvchi vosita emas, balki shaxsni ijtimoiy jihatdan shakllantiruvchi qudratli pedagogik mexanizmga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yoqubova D. (2020). *Nutqiy rivojlanish va bolalar psixologiyasi*. – Andijon: ADPI nashriyoti, 2020. – 143-bet.
2. Yo'ldoshev X. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va nutqiy kompetensiyani shakllantirish usullari*. – Toshkent: TDPU, 2019. – 76-bet.
3. Raxmonqulova S. (2017). *Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Fan, 2017. – 128-bet.
4. Jo'rayeva Z. (2021). *Til o'rgatishning kommunikativ texnologiyalari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 109-bet.